

## USMON AZIMNING “SO‘NGSO‘ZLAR” ASARIDA IJOD VA IJODKORLIK HAQIDAGI QARASHLARI

Ahmedova Madinabonu Qahramonjon qizi,

TOSHDOTAU adabiyotshunoslik: adabiyot nazariyasi 2-kurs magistranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-3380-6852>

e.pochta: [madinabonu667@gmail.com](mailto:madinabonu667@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Usmon Azimning ijod va ijodkorlik haqidagi adabiy-estetik qarashlari tadqiq etiladi. Unda shoirning ijod jarayoni, iste’dod, ijodkor mas’uliyati, halollik, mardlik, ijodiy mehnat va intizom xususidagi adabiy-estetik qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijod va turmush munosabati, zamon bilan hamnafaslik, janriy erkinlik hamda individual uslubning badiiy ijoddagi o‘rni Usmon Azim qarashlari asosida yoritiladi. adabiy-estetik tafakkurining muhim jihatlaridan biri sifatida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** Ijod, ijodkor, iste’dod, ijodkor mas’uliyati, individual uslub, janriy erkinlik, zamonaviylik.

**Annotation.** This article examines the literary-aesthetic views of Usmon Azim on creativity and the personality of the creator. It analyzes the poet’s ideas about the creative process, talent, the responsibility of the creator, honesty, courage, creative labor, and discipline. The article also explores the relationship between creativity and everyday life, harmony with the spirit of the age, genre freedom, and the role of individual style in artistic creation based on Usmon Azim’s views. The study evaluates the poet’s reflections on literature and creativity as one of the important aspects of Uzbek literary and aesthetic thought.

**Keywords:** creativity, creator, talent, creator’s responsibility, individual style, genre freedom, modernity.

**Аннотация.** В данной статье исследуются литературно-эстетические взгляды Usmon Azim на творчество и личность творца. Анализируются представления поэта о творческом процессе, таланте, ответственности творца, честности, мужестве, творческом труде и дисциплине. Также на основе взглядов Usmon Azim освещаются вопросы взаимосвязи творчества и повседневной жизни, созвучия эпохе, жанровой свободы и роли индивидуального стиля в художественном творчестве. В исследовании размышления поэта о литературе и творчестве оцениваются как один из важных аспектов узбекской литературно-эстетической мысли.

**Ключевые слова:** творчество, творец, талант, ответственность творца, индивидуальный стиль, жанровая свобода, современность.

**Kirish.** Ijod va ijodkor shaxsi muhim adabiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Usmon Azim ijodni uzluksiz o‘y-mushohada jarayoni ekanligini tan olgani holda, ijodkorning-da qanday fazilatlariga ega bo‘lmog‘i, qanday umrguzaronlik kechirishi va nimalardan o‘zini soqit qila bilishi haqida fikr yuritadi. Ijodkor ijod mas’uliyatini ma’lum muddat emas, bir umr gardaniga yuklashi, iste’dodning qadr-qiyamatini yerga urmasdan uni asrab-avaylab saqlamog‘i kerakligi, bu ijodkorning o‘zi, qolaversa, bu asarlarni mutolaa qiluvchi o‘qirmanlar oldidagi qarz, ulkan mas’uliyat ekanligini tayinlaydi, shuningdek, shoir ayni bu qarashlarni yashash va ijod qilish tamoyiliga aylantirdi. Usmon Azim ijod jarayoni va ijodkor shaxsiyatiga jiddiy talablar bilan qaraydigan shoir. Ijod izlanish, mehnat samarasi ekanligini anglagan va boshqalarga-da ushbu anglamlarni uqtirishga intilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Usmon Azim yozuvchilikni kasb ekanligini ta'kidlab, ayni bu kasbda qanday qilib mahoratni charxlash, qanday qilib turmush tashvishlaridan adabiyotga vaqt ajratish masalasi haqida turli ijodkorlar tomonidan ko'p maslahat berilganligini ta'kidlaydi. Zero, aksariyat insonlarning nazdida ijod iste'dodli shaxsning hayot tarzi deya talqin etiladi, lekin mohir kasb egasi bo'lish uchun qanchalik kasbiy mahorat, izlanish, intilish lozim bo'lsa, yozuvchilik kasbi uchun ham ayni shu talablar lozim, ijodkor yelkasida mudom iste'dod o'tliq mas'uliyat inson sifatida, ijodkor sifatida yuklangan vazifani ado etmoq xususida ijod qilishga chorlab turadi. Usmon Azim ijodkorga iste'dod va iroda berilgan bo'lsa adabiyotda o'z yo'lini topishini, agar bu kabi fazilatlar ijod qilishga da'vogar insonda yo'q bo'lsa, unga hech kim ko'mak berolmasligini, ta'kidlaydi. "Xo'sh, ijodkorlik nafasi bor – "Parvardigor iste'dod va iroda bergan" odam nima qiladi? Endi unga faqat o'zigina halal berishi mumkin. Fe'-atvordagi bo'shanglik; shaxs sifatidagi uvoqlik tufayli o'z hayotini nazorat qilolmaslik va ba'zan "sevimli" o'zini haddan ortiq erkalatish natijasida paydo bo'ladigan qusurlar uni yozuvchi sifatida mukammal shakllanishga yo'l qo'ymaydi"[2.151]. "Iste'dodni o'stirmasdan, "unga kun sayin mehnat bilan jilo bermasdan"(Abdulla Qahhor), yashashda va ijodda kuchli intizomga bo'ysunmasdan, ilhom bilan yozmasdan kitobxon qalbini zabt etish, badiiy talant sohibi bo'lish mumkin emas ekan"[3.14]. Darhaqiqat, ijodkorga Yaratgandan iste'dod in'om etilishi mumkin, ammo uni asrab-avaylash, charxlash, sayqallash bo'lmasa, iste'dodli odam bu in'omni yo'qotishi ham mumkinligini ta'kidlaydi Usmon Azim. Usmon Azim ijodkorga berilgan iste'dod faqat unga tegishli emas, balki butun insoniyat uchun berilganini, ijodkor iste'dodi bilan dunyoni bir qadar mukammal qilishi, dunyo uchun allaqanday kerakli ilohiy hikmatni yaratishi uchun yaratganligini ta'kidlaydi. Iste'dod va ijodkorlik zalvarini his qila olish, haqiqiy yozuvchi sifatida dunyoga aytarini aytmoq uchun esa ijodkordan mahorat, ijodiy mashaqqat, mukammalikka intilish kabi fazilatlar ham muhim. Shu nuqtayi nazardan Erkin Vohidov ta'kidlaganiday yozuvchi bo'lish uchun insondan ko'pdan ko'p fazilatlar talab qilinishini, bu fazilatlarda bo'shliq yoki yetishmovchilik natijasida haqiqiy ijodkorlar hamma zamonda ham kamligini ta'kidlaydi: "Yozuvchi bo'lish uchun juda ko'p, beqiyos ko'p xislatlar mujassam bo'lmog'i kerak. Iste'dod, bilim, mehnatsevarlik, zamon va makon tuyg'usi, zakiylik, qat'iyat, ruhan va jisman poklik, adolat tuyg'usi, kurashchanlik, fidoyilik, hayratlanish va yona bilish qobiliyati va o'nlab boshqa fazilatlar ..."[1.11]. Demak, ijodkorda mavjud bu kabi fazilatlar uni haqiqiy yozuvchilik maqomiga ko'taradi. Ijodkor faqatgina yozgan asari bilangina ulug'lanmaydi, ijodkor shaxsi, fazilatleri, insoniyligi, halolligi, mardligi, kurashchanligi, haqiqatga o'chligi ham uning ijodida aks etishi kerakki, bejizga adabiyotshunoslikda ijodkor biografiyasi uning badiiy asarlari bilan birga o'rganilmaydi. Usmon Azim tabiatidagi mardlik, halollik, kurashchanlik, metin iroda, sadoqatlilik, to'g'rilik ijodida ham "yarq" etib ko'rinish bilan birga, ijodkor shaxsiyati badiiy asariga singdirilgan. Usmon Azim ijodkorning o'zi qanchalik mard, haqiqatparvar bo'lsa, uning

ijodi ham shuchalik mard bo'lishini ta'kidlaydi. Shoir ko'p bor "she'r shoirga o'xshashi kerak" deb uqtirishi ham fikrimizning tasdig'idir. "U halol yashadi, yuzing-ko'zing demay haq gapini aytib o'taverdi hamisha. "Shoirlari yolg'on aytsa o'ladi el" degan satrlarni ko'ngliga solgan Tangrini yuz-xotir qildi mudom. Doim mard bo'lib, tanti, jo'mard bo'lib qolgani uchun ham taqdir uni SHOIR degan sharaf bilan siyladi. Usmon Azim doim halollikning tarafini oldi, yupun, g'arib, yo'qsil bo'lsa-da, haqiqat tomonda turdi. Har lahza bezovtalik bilan qayg'ura oldi bu haqda. Qismat uning tanglayiga shoirlilikning shunday cho'g'li tamg'asini bosganiga ko'p bor amin bo'ldim"[6.17]. Hayotdagi a'moli boshqa, yozgan asari boshqaboshqa bo'lishi ijodkorning o'zi oldida, qolaversa, jamiyat, adabiyot, Parvardigor oldida ham qiymati, inson, ijodkor sifatidagi qadrining ham yo'qolishiga sababchi bo'ladi. Shodmonqul Salom Usmon Azim shaxsiyatidagi mardlik, jo'mardlik, halollikni yuksak e'tirof etar ekan, Usmon Azim ana shu mardlikni ijodiga ham singdirganini, boshqa ijodkorlarga ham ayni shu o'gitni singdirishga intilganiga guvoh bo'lamiz. Shoir ijod ham ijodkor shaxsiyatidek halol, mard bo'lishi kerak, deya uqtiradi: "Ijod - halollik, mardlikdir. Dunyoning ko'ziga tik qarab yozish hammaga ham nasib qilavermaydi. Umrini halollik asosida qurgan mard insonningina So'zi ham mard bo'ladi. Ha, haqiqiy ijodkor yolg'onni yozaman desa ham qo'lidan kelmaydi. Negaki, uni Parardigor "haqiqatni yoz", deb yaratgan[2.184].

**Tadqiqotlar metodologiyasi.** Ijodiy mehnat uchun ma'lum bir sharoit kerak. Ijodkor ijod qilish bilan birga, yashash qonuniyatining biri – u tirik qolishi kerak. Ammo ijod qilish va tirikchilik masalasi aslo bir-biriga o'xshamaydigan, bir-birini inkor qiladigan tushunchalardek tassurot qoldiradi. Tirikchilik tashvishlariga andarmon bo'lgan yozuvchi, ilhom kelgan oni ham ijoddan tashqaridagi vazifasi bilan mashg'ul bo'lishga majburligi yuzasidan balki qanchadan qancha yaxshi asarlar dunyo yuzini ko'rmay qolgandir. Ammo tirikchilik tashvishlari bilan butun kunini o'tkazgan ijodkorni iste'dod, Rauf Parfi ta'biri bilan aytganda "shovullagan" nimadir tinch qo'ymasligi tabiiy. Ayni shu vaj sabab aksar ijodkorlar tunda, ishlaridan bo'shagan onlarida yozganlar. Usmon Azim Asqad Muxtor umrining so'nggi pallalarida kasalikka duchor bo'lib tunda zo'riqib ijod qilmaslikni yoshlarga tavsiya etgani, ammo shoir nazdiga ko'ra bor-yo'g'ini yozayotgan asariga berolmay yashash ham ijodga katta zarar keltirishini ta'kidlaydi: "Ijod - to'lig'icha o'zini bag'ishlashni talab etadigan kasb. U "qo'lim tegsa yozarman"ni yoqtirmaydi. Ijodkorning fikr-u zikri yozayotgan asarida bo'lishi talab etiladi. Masalan, tun bo'yi mehnat qilgan adib ertasi o'z ishiga umuman aloqasi yo'q yumushlar bilan shug'ullanishga, boshqa muammolarni hal qilishga majbur bo'ladi. U chalg'iydi. Yozayotgan narsasi, albatta, xayolidan ko'tariladi. Buning ustiga to'yib uxlamagan"[2.293]. Usmon Azim adabiy suhbatlaridan birida ilk she'riy kitobi bilan dovruc qozongan juda ko'p iste'dodlarning turmush kechirish tashvishida adabiyot olamidan butkul yiroq kasblarda ishlashlarini afsus bilan aytadi. Umrinda chalg'ishlar ko'p bo'lgan ijodkor esa maydalashib borishini, Xudo berganini dunyoga qaytara olmasligi, ulug' vazifasini chala bajarishi natijasida

maydalashib qolishini ta'kidlaydi. Ayni shu chalg'ishlar sabab yozuvchini yozishga undaydigan ilhom keyinroqqa kechiktirilishi natijasida, ilhom bilan asar yozilmay qolishi, asarning qaysidir qismi jonsizdek tuyulishi, ayni turmush muammolari sabab qanchadan qancha asarlar dunyo nafasini ko'rmay "o'lishi" mumkinligi haqida fikr bildiradi. "Faqat bir narsa ravshan: kimda kim o'zining xohishiga qarshi borib, qolmoqchi bo'lgan keladigan zararni va yetadigan talafotni aniq-tiniq bilib turib, ro'yobga chiqmay qolgan ijodiy niyatlar va ushalmay qolgan orzular hisobiga kundalik rizqini terib yurar ekan, kimda kim o'zining sevimli ishiga yakshanba kunlaridagi istirohat chog'larinigina bag'ishlay olsa, kun bo'yi mehnat qilib kelib, kechqurun uzuq-yuluq ijod bilan shug'ullansa, kimda kim o'zining fikr dunyosi bilan hech qanday muhtashamlikka ega bo'lmagan ishlar bilan shug'ullansa, bu mashg'ulotlar esa uning miyasini bo'lar-bo'lmas keraksiz narsalarga to'ldirishdan boshqaga yaramasa, bunday odam yil oxirida sarhisob qilib, qarshisida behuda ketgan minglab soatlar qabristoni qad ko'targanini ko'radi va dahshatga tushadi. U ayrim shaxs sifatida umrini behuda o'tkazib yuborganini sezadi, agar u iste'dodining gapiga kirib, o'zini to'laligicha ijodga bag'ishlaganda, jamiyat ham undan ko'p narsa olishi mumkin bo'lardi"[4.75]. Ayni shu holga qarshi Usmon Azim ijodkorlarga ma'lum sharoitlar yaratilishi kerakligi haqida ta'kidlaydi: Birinchidan, adabiyotni bo'lar-bo'lmas vazifalar qo'yib chalg'itmaslikni o'rganish lozim. Ikkinchidan, iste'dodli odamlarning kasb-u kori bilan shug'ullanishga yo'l ochadigan, o'rtahol umrguzaronlik qilishlari uchun shart-sharoit yaratilmog'i zarur. Buning uchun birov sadaqa berishi lozim emas, shunchaki, katta qonunlar bilan erkalatib, yuksakka ko'tarilgan mualliflik huquqiga barcha barobar amal etmog'i kerak[2.294]. Usmon Azim ham ish joyi – redaksiyada ham she'r yozishni o'rganligini yozadi. Avvalo, ishxonada kun tezroq tugashini kutib u yoq bu yoqda o'zini chalg'itib yurishini, ammo ichidan nimadir shoirni tinmay bezovta qilishini va bir kuni odamlarning shovqin, turli qo'ng'iroq ovozigga qaramay birinchi satrni yoza boshlaganini keyin esa qolgan satrlarni ham yoza boshlaganini yozadi. Shu tarzda ayni ish joyida ham ijod qilish sir-sinoatini egallagani ta'kidlaydi. Ayni bu ijod jarayonida ijodkor yozayotgan asariga cho'kib ketishi kerakligini uqtiradi.

**Tahlillar va natijalar.** Usmon Azim iste'dodli ijodkorning zamonaviy bo'lishini, zamon bilan hamnafas ijod qilishi, o'z davri voqea-hodisotlariga befarq bo'lmagan inson sifatida biladi. "Biroz g'ayritabiyy bo'lsa ham aytay, ijodkor zamonning ravishiga quloq tutadi. Uning ohangini, ritmini, to'lg'onishlarini - dardining shaklini ongorti fikrat, ruhiy bir bog'lanishda his qiladi. Uni badiiy shaklga ko'chirish yo'llarini qidiradi. Chunki ijodkor zamon bilan hammadan ko'ra chambarchas bog'liq - u zamonning yuragi va asabidir. Ular birinchi bo'lib kechayotgan voqealarga yarashiqli "yangi" liboslar izlaydi"[2.235]. Usmon Azim "Halil Sulton" dramasini she'riy yo'lda yozgandan so'ng, har bir asar ijodkorga ma'lum tajribalar berishini, ixtiyorsiz ravishda zamonaiy adabiyotning qanday bo'lmog'i haqida javoblar izlashini ta'kidlaydi. Ayni shu she'riy

dramatik asaridan so‘ng bugungi dramatik asarlar uchun she‘riy matn mos kelmasligini anglaganini, bugungi o‘qirmanlar uchun batafsil syujetlar, she‘riy dialog va uzun-uzun monologlar ortiqch ekanligi, hatto g‘ashlariga tegishi mumkinligi haqida fikr bildirib, bugungi o‘quvchi uchun Kornel yoki Shekspir emas, o‘ziga yaqin realistik qahramonlar, insonlar boshidan kechirayotgandek voqeotlarni sahnada ko‘rishni ko‘proq istashlari haqida yozadi. Usmon Azim dramaturgiyadan tashqari nasr va nazmda ham zamon talabidan kelib chiqqan holda shakliy o‘zgarishlarlar sodir bo‘lgani, bu janrlar ham insonlar emas, aynan zamoni his qilgan ijodkorlarning talablari asosida o‘zgarayotganini ta’kidlaydi. Usmon Azim mumtoz she‘riyatdagi an‘analarning XX asr boshida o‘zgarishga yuz tutganini, mansura she‘rlar yangilik sifatida adabiyot maydonida paydo bo‘lganini, ammo bu tajriba keyinchalik davom etmaganini, o‘tgan asrning 30–60-yillarida esa zamon ruhini his qilishga ijodkorlarda imkon bo‘lmaganini, his qilganlar esa qatag‘onga uchragani, boshqalari esa his qilmaslikka olganlarini, shakldan ko‘ra mazmun ustunligini qo‘yib faqat ma‘lum buyurtmalar asosida ijod qilinganini yozadi. Dramaturgiyada esa Hamzaning yuksak mahoratini e‘tirof etgani holda uni hech qachon eskirmaydigan ijodkor ekanligini ta’kidlaydi. Hamzaning ham iste‘dodi yuksakligi sabab dramatik asarlarini she‘riy usulda yozish imkoniyati bo‘lsa-da, lekin nasrda ijod qilishiga sabab ijodkor qay birining muhimligini, ayni zamonga qanday usul muhimligini anglay olgan ijodkor ekanligini ta’kidlaydi. Usmon Azim ijodkor ma‘lum adabiy janrlar bilan cheklanib qolmaslikni, balki turli janrlarda ijod qilib iste‘dodi ufqini kengaytirishi lozimligiga urg‘u beradi. Qaysidir his-kechinma, bildirilishi lozim bo‘lgan badiiy g‘oya ayni shoir-yozuvchi doim ijod qiladigan janrga muvofiq kelmasligi mumkin. Ba’zida ijodkorning o‘y-fikrlari, his-kechinmalarining o‘zi janrlarni tanlaydi, gohida mavjud janrlarga ham sig‘masligi natijasida yangi janrlar ham yaratiladi. Iste‘dodni ma‘lum bir qolipga, janrga majburlab sig‘dirib bo‘lmaydi. “Asar o‘z janr xususiyatlari bilan tug‘iladi. Tug‘ilib bo‘lgandan keyin esa, qizni - o‘g‘ilga yoki o‘g‘ilni qizga aylantirilmaydi”[1.35]. Usmon Azim haqiqiy iste‘dodli ijodkor uchun janrlarning chegarasi yo‘qligini, har bir janr ijodkorning mulki ekanligini, ijodkor faqat bir janr bilan cheklanib qolishi uni chegaralashini ta’kidlaydi: “Iste‘dodga bir janr torlik qiladi. Uning boshqa janrlarda nogahon yoza boshlashi ijoddagi ozodlik istagining bir ko‘rinishi – o‘zligini bor bo‘yicha ko‘rsatishga urinishidir. Mabodo u bir janr hududida qolib ketgan bo‘lsa, o‘zining qadrini bilmaganidan, yo erinchoqlikdan, yo qo‘rqoqlikdan”[2.370].

Ijodkor dastlab ijodiy shakllanish bosqichida ijodida taqlid seziladi. Hali o‘z ovozigaga ega bo‘lmagan ijodkor turli ijodkorlarning uslubidan biroz o‘zlashtirish natijasida asar yaratadi. Va ijodkor shakllanib borgani sayin o‘z ovozini kashf qilishga, adabiyotda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lishga harakat qiladi, ayni shunday pallada ayrim ijodkorlar adabiyot maydonida yo‘qolib qolishi, yoki bunyod bo‘lishi mumkin: “Nazarimda, ijodkorning o‘zini topishga sarflagan umrining bo‘lagi juda muhimdir. Bu yo‘lda ijodkor yo‘qolib qolishi yoki alaloqibat bunyod bo‘lishi mumkin. U ichida shovullab, tinchlik bermayotgan

g'ussani – dardni ifoda eta boshlasagina ijodkor sifatida shakllanish bosqichiga qadam qo'ygan bo'ladi"[2.449]. Usmon Azim uslubni ataylab yaratib bo'lmasligini, mehnat, izlanish, qunt natijasida ijodkorning uslubi asarida aks etishini, uslub iste'dodning ko'rinishi ekanligini ta'kidlaydi. "Yozuvchining yozuvchiligini hamma narsadan avval uning uslubidan izlamoq kerakdir"[4.49].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Usmon Azim ijod va ijodkorlikni yuksak ma'naviy mas'uliyat sifatida talqin etadi. Shoir nazarida haqiqiy ijodkor iste'dod bilan birga halollik, mardlik, mehnatsevarlik va intizom kabi fazilatlariga ham ega bo'lishi lozim. Ijodkorning shaxsiyati va ichki dunyosi uning asarlarida aks etishi, ijod esa zamon bilan hamnafas, samimiy va badiiy jihatdan mukammal bo'lishi kerak. Usmon Azimning bu qarashlari o'zbek adabiy-estetik tafakkurida muhim o'rin tutadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Normatov U. Talant tarbiyasi. – T.:Yosh gvardiya, 1980
2. Usmon A. So'ngso'zlar. – T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020.
3. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – T.: O'zbekiston, 2001
4. Yan Parandovskiy. So'z kimyosi. – T.: Yangi asr avlodi, 2022.
5. Vohidov E. Shoir-u she'r-u shuur. – T.: Yosh gvardiya,1987.
6. Shodmonqul. S. Tog' boshiga qor tushibdi, qor. Yoshlik jurnali 5-6son, 2020.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934